



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## INTERYER DIZAYN TERMINLARINING POLISEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Xolmurotova Gulnora Sattorovna,**  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi*  
[gulnoraxolmurodova5@gmail.com](mailto:gulnoraxolmurodova5@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179666>

*Annotatsiya:* Maqolada interyer dizayn terminlarining polisemantik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Terminlarning turli kontekstlarda anglanishi va tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ularning kommunikativ va aksiologik xususiyatlari hamda ingliz va o'zbek tillaridagi farqlari chog'ishtirma tahlil asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari interyer dizayn terminologiyasining aniq va izchil qo'llanilishiga hissa qo'shishi mumkin.

*Kalit so'zlar:* interyer dizayn, terminologiya, polisemantika, lingvistik tahlil, aksiologik xususiyatlar, tarjima muammolari, kommunikativ aniqlik.

**Kirish.** Interyer dizayni inson hayotida estetik va funksional ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy jamiyatda uning o'rni tobora ortib bormoqda. U nafaqat me'moriy yechimlar tizimi, balki insonning psixologik hamda estetik ehtiyojlarini qondiruvchi san'at shakli sifatida ham e'tirof etiladi. Har qanday bino yoki xonaning ichki makonini qulay va estetik jihatdan uyg'un tarzda loyihalash insonning kayfiyatiga, ish unumdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Interyer dizayniga oid tushunchalarni aniq ifodalashda terminlarning o'rni muhimdir. "Termin" so'zi lotincha *terminus* — "chegara, chegaraviy nuqta" [5: 74-b.] ma'nosidan kelib chiqqan. M. Popovanning yozishicha, bu "tabiiy yoki sun'iy til birligi bo'lib, muayyan ilmiy, texnik yoki umuman professional sohadagi tushunchani ifodalaydi" [3: 25-b.]. Interyer dizayn terminlari esa mazkur sohaning ilmiy va amaliy jihatlarini tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu terminlarning aniq va izchil qo'llanilishi nafaqat mutaxassislar, balki ushbu soha bilan bog'liq bo'lgan keng auditoriya uchun ham tushunarli va samarali muloqotni ta'minlaydi.

Interyer dizayn terminlarining terminologiya rivojidadagi ahamiyati juda katta bo'lib, ularning aniq va izchil qo'llanilishi mutaxassislar o'rtasida samarali kommunikatsiyani ta'minlaydi. Terminlarning noaniqligi esa tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. K.Ya. Averbuxning fikriga ko'ra, terminlarning real funkcionallik tahlili shuni ko'rsatadiki, haqiqiy terminologiya sohasida polisemiya mavjud emas. Chunki termin — aniq belgilangan va muayyan termin tizimi doirasida bir ma'nolilikka intiluvchi birlik bo'lib, u ma'lum kontekstda faqat bitta ma'noga ega bo'lishi kerak. Aks holda, u o'zining kommunikativ vazifasini to'g'ri bajara olmaydi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Terminning monosemantik xususiyatidan chetga chiqish holatlari uning noto'g'ri qo'llanilishi sifatida talqin qilinadi, lekin bu holatlar uning xususiyati (ya'ni, polisemikligi) sifatida baholanmaydi [1: 39-b.]. Ayniqsa, interyer dizayn terminlari ko'pincha polisemantik bo'lib, turli kontekstlarda turlicha ma'no kasb etadi. Bu esa dizaynerlar, tarjimonlar va mutaxassislardan lingvistik sezgirlik, kontekstual tafakkur hamda aniq termin tanlashda yuqori ehtiyotkorlikni talab etadi. Shu bois, terminlarning noaniqligini bartaraf etish va ularning ma'noviy chegaralarini aniq belgilash ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi.

Terminning xarakterli xususiyatlari qatorida A.A. Reformatskiy uning aniq ma'noliligini yoki monosemikligini terminologik maydon doirasida ta'kidlaydi [4: 47-b.]. U terminlarning terminologik izolyatsiyasini, ularning terminologik maydonga ichki daxldorligini va kontekstga nisbatan mustaqilligini alohida qayd etadi. Shunday qilib, A.A. Reformatskiy taklif qilgan "terminologik maydon" konsepsiyasi terminologiyani tushunishda D.S. Lotte tomonidan ilgari surilgan terminologiyani terminlar tizimi – tushunchalar tizimi sifatida talqin qilish bilan to'liq mos keladi. Biroq, terminologiyada mazmun va ifoda o'rtasidagi mutlaq moslikdan chetga chiqish holatlari tez-tez uchrab turadi, bu esa polisemiya (ko'p ma'nolilik)ning yuzaga kelishiga olib keladi. Ilmiy tafakkurning rivojlanishi nafaqat yangi terminlarning paydo bo'lishiga, balki turli ma'no nozikliklarining shakllanishiga ham sabab bo'ladi.

Polisemantika tushunchasi lingvistikaning muhim qismi bo'lib, u bir so'z yoki terminning turli ma'nolarga ega bo'lishi xususiyatini ifodalaydi. O.S. Axmanova polisemiyaning "bir so'zning o'zaro bog'liq bir nechta ma'noga ega bo'lishi, odatda, uning dastlabki ma'nosining o'zgarishi va rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi" [2] deb tushunadi. Bu xususiyat interyer dizayn terminlarida ham kuzatiladi. Polisemantik terminlar dizayn jarayonida yaratilgan ob'ektlarni tushuntirishda yordam beradi, ammo bir vaqtning o'zida ularning ko'p ma'noliligi tushunchalarni noto'g'ri talqin qilish xavfini ham keltirib chiqaradi.

Interyer dizayn terminlari turli kontekstlarda bir necha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bunday polisemantik xususiyatlar tilshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, interyer dizayn sohasida ham ushbu hodisa aniq namoyon bo'ladi. Masalan, "*panel*" termini qurilish va interyer dizaynida turli ma'nolarda qo'llanadi:

▪ Qurilish terminologiyasida "*panel*" – yassi konstruktiv element (devor paneli, shift paneli).

▪ Interyer dizaynida esa "*panel*" – dekorativ element (devor bezak paneli, yog'och yoki plastik panellar).



# XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Yana shu kabi misoldan “*ornament*” termini ham turlicha ma’noga ega:

- San’atshunoslikda “*ornament*” – naqsh va bezak tushunchasini anglatadi.
- Interyer dizaynida “*ornament*” – bezak uslubi, devor qog’ozlari yoki mebellardagi naqshlar ma’nosida ishlatiladi.

Ba’zi interyer dizayn terminlari tarixiy va madaniy kontekstga bog’liq holda turli ma’nolar kasb etadi. Masalan:

▪ “*Mosaic*” (mozaika) – G’arbiy dizaynda antik Rim san’atiga asoslangan bezak usuli sifatida tushunilsa, o’zbek interyerida an’anaviy islmiy naqsh va ganch o’ymakorligida ham qo’llaniladi.

▪ “*Majolica*” – Yevropada bo’yalgan sirli chinni idishlarga nisbatan qo’llansa, o’zbek interyerida bu tushuncha ko’proq sirlangan g’isht yoki koshin naqshlari uchun ishlatiladi.

Interyer dizayn terminlarining turli tillarda farqli talqin qilinishi tarjima jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, terminlarning ko’p ma’noiligi: “*molding*” (qolip, lepnina) tushunchasi ingliz tilida ham shift dekoratsiyasi, ham yog’och bezakni anglatishi mumkin. O’zbek tilida esa “ganch o’ymakorligi” va “bezakli yog’och elementlar” sifatida ikki xil tushuniladi.

Madaniy farqlar: “*Rustic*” uslubi ingliz tilida “*qishloq uslubi*” deb tarjima qilinadi, ammo u g’arbiy va sharqiy madaniyatlarda turlicha talqin etiladi. O’zbek interyerida “*rustic*” tushunchasi “*milliy-me’moriy uslubga yaqin tabiiy materiallar bilan ishlangan bezaklar*” deb tushuniladi.

Ushbu qiyinchiliklarni yaxshiroq tushunish uchun quyidagi jadaval orqali misollarni ko’rib chiqamiz:

Termin	Ingliz tilidagi ma’nosi	O’zbek tilidagi ekvivalenti	Farqlanuvchi jihatlar
<i>Molding</i>	Bezakli qolip bezaklari	Ganch o’ymakorligi / Yog’och bezaklar	G’arbda ko’proq shift va devor bezaklari, o’zbek madaniyatida esa ganch asosida ishlanadi.
<i>Rustic</i>	Qishloq uslubi	Tabiiy materiallardan iborat interyer	G’arbiy uslubda yog’och va tosh ko’p ishlatiladi, o’zbek uslubida esa milliy naqshlar ko’proq bo’ladi.
<i>Mosaic</i>	Mayda bo’lakli san’at asari	Koshin san’ati / Bezak texnikasi	G’arbiy mozaika san’ati bilan o’zbek naqshlarida ifodalangan mozaika farqlanadi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Quyidagi jadvalda ham interyer dizayn terminlarining polisemantik xususiyatlarini va ularning turli madaniyatlarda qo'llanilishini tushuntiruvchi misollar keltirilgan:

Termin	Ingliz talqini	O'zbek talqini
<i>stil (uslub)</i>	Modern, klassik, industrial kabi turlari	Milliy uslub, zamonaviy uslub
<i>minimalizm</i>	Funksionallik va soddalik	An'anaviy uylarning soddaligi
<i>kontrast</i>	Ranglar va shakllarning keskin farqlari	Naqsh va zamonaviy elementlarning uyg'unligi

Interyer dizayn terminlarining polisemantik xususiyatlari tilshunoslikning kognitiv va madaniy yondashuvlari asosida tahlil qilinishi mumkin. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, terminlarning ko'p ma'noliligi insonning bilim jarayonlari va tajribalari bilan bog'liq. Madaniy yondashuv esa terminlarning ma'nolari madaniy kontekstga qarab o'zgarishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, interyer dizayn terminlarining polisemantik xususiyatlari va ularning madaniy kontekstdagi o'zgarishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

### **Termin → Turli ma'nolar → Madaniy kontekst → Natijaviy talqin**

Polisemantik terminlar, ya'ni bir nechta ma'noga ega bo'lgan so'zlar, interyer dizaynida noto'g'ri talqin qilinishi yoki tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, "modern" kabi atama turli dizayn uslublarini anglatishi mumkin, bu esa loyihalash jarayonida chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun, dizaynerlar va mijozlar o'rtasida aniq muloqot uchun bunday terminlarning ma'nosi bir xil tushunilishi kerak.

Terminlarning aniqligini ta'minlash uchun dizayn sohasida standart lug'atlar yoki qo'llanmalar ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, professional tashkilotlar tomonidan terminlarni izohlash va ularni qo'llash bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash mumkin. Shuningdek, dizayn ta'lim muassasalarida terminlarning to'g'ri va bir xil talqin qilinishiga alohida e'tibor berish kerak.

Kelajakda interyer dizayn terminlarini standartlashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish va ularni global miqyosda qo'llash mumkin. Bundan tashqari, terminlarni batafsil izohlovchi va ularning qo'llanilishini misollar bilan tushuntiradigan qo'llanmalar yaratish foydali bo'ladi. Bu nafaqat dizaynerlar, balki mijozlar uchun ham tushunarli muhit yaratishga yordam beradi.



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Авербух, К.Я. Терминография: традиционное и специфическое // Теория и практика научно-технической лексикографии: сборник статей. — М.: Русский язык, 1986. — С.39-40.
2. Ахманова О.С., Натан Л.Н., Полторацкий А.И., Фатющенко В.И. О принципах и методах лингвистических исследований / под ред. О.С. Ахмановой. — Москва: Издательство МГУ, 1966. — 140 с.
3. Попова, М. Теория на терминологията / М.Попова. — Велико Търново: ИК «Знак'94», 2012. — 687 с.
4. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии. — М.: Изд-во АН СССР, 1961. — С.46-54.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 4 жилдлик. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. — Ж. 4. — 608 б.